



2024-yil 9-oktabr

Raqamli texnologiyalar

Raqamli texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Soha korxonalarida yagona raqamli boshqaruv muhitini yaratish, ma'lumotlarni markazlashtirilgan tarzda tahlil qilish va biznes jarayonlarni optimallashtirish maqsadida ilg'or axborot tizimlari bosqichma-bosqich joriy etildi.

"O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida raqamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Barcha IT dasturlarni bir joyga yig'ib, moliyaviy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan "Analitik markaz"lar tashkil etildi hamda texnik uskunalalar bilan jihozlandi.

"Navoiyazot" AJ, "Maksam-Chirchiq" AJ, "Ammofos-Maksam" AJ, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ, "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ, "Qo'ng'iroq soda zavodi" MCHJ QKda "1S" dasturi platformasi asosida moliyaviy rejalashtirish, shartnomalar ijrosi, g'aznachilik to'lovlari, xaridlar, savdo operatsiyalari va komplayens nazorati tizimlari raqamlashtirildi.

Mazkur modullarni joriy qilish natijasida quyidagi imkoniyatlar yaratildi:

- korxonalarining biznes-rejalari va xarid limitlari shakllantirildi hamda yil davomida undan chiqmasligi avtomatik tarzda nazorat qilinmoqda;
- har bir xarid hujjatlarini shakllantirish, to'plash, tasdiqlatish va ijroga yo'naltirish bosqichlari raqamlashtirildi;
- biznes rejada mavjud bo'lmagan yoki omborxonada hisobga olingan mahsulotlarni qo'shimcha xarid qilinishiga cheklov qo'yildi;
- xarid moduli orqali shakllantirilgan hujjatlar asosida qo'shimcha moliyaviy va komplayens tekshiruvlarni o'tkazish, birja savdolariga chiqarish va bank to'lovlarini amalga oshirish uzviy bog'landi;
- birja savdolariga tayyor mahsulot sotuvi lotlarini e'lon qilish, sotish shartnomalarini avtomatik olish, omborxonalariga o'g'it yetkazilishi va xaridorlarga yuklanishi nazorat qilish jarayonlari yaxlit tizimda tashkil qilindi.

Soha ma'lumotlarini jamlash va tahlil qilish maqsadida yaxlit biznes tahlil axborot tizimi (Dashboard) ishlab chiqildi. Mazkur tizimda barcha korxonalarining omborxonalarida mahsulot aylanmasi, kreditor-debitor qarzdorliklari, import va eksport qilingan mahsulotlar, bankda pul aylanmasi, investitsion loyihalar, moliyaviy model, energoresurslar sarfi, soliq qarzdorliklari va ekin ekilish maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilinishi yo'lga qo'yildi.

Tarmoq korxonalariga tegishli ma'lumotlarni jamlash va monitoring qilish bo'yicha 21 ta vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya ishlari to'liq yakunlandi. Ma'lumotlar ishonchligini oshirish va biznes jarayonlarni avtomatlashtirish maqsadida Tovar xom-ashyo birjasi, Elektron kooperatsiya portali, XT-xarid, O'z sanoatqurilishbank, Asakabank, Agrobank, O'zGazTreyd, Transgaz, Hududgaz, Hududiy elektr tarmoqlari, Suvta'minot, Temir yo'llari, Bojxona qo'mitasi,

Soliq qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, elektron hisobvaraƒ-fakturalarni rasmiylashtiruvchi operatorlari hamda kimyo sanoati korxonalarining ma‘lumotlar bazalari o‘zaro integratsiyasi yo‘lga qo‘yildi.

Xususan:

- Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligidan investitsion loyihalar ma‘lumotlari olinadi;
- “O‘zbekiston tovar-xom ashyo birjasi” AJ, “Hayot birja” AJ, “Raƒamli transformatsiya markazi” MCHJlarning birja savdolari natijalarini onlayn monitoringi yo‘lga qo‘yildi;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Agrobank” va “Asakabank” AJ tizimlari bilan bank amaliyotlari tarixi va pul aylanmasi bo‘yicha ma‘lumotlar olinmoqda;
- Bojxona qo‘mitasidan import va eksport qilingan kimyo mahsulotlari ma‘lumotlari onlayn olinmoqda;
- Qishloq xo‘jaligi vazirligining “CropAgro” axborot tizimidan fermerlar, ekin maydonlari va hosildorlik ko‘rsatkichlari olinmoqda;
- “Hududgazta‘minot” AJ, “O‘ztransgaz” AJ, “UzGazTrade” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJlardan energiya resurslarining markaziy hisoblagichlari ko‘rsatkichlarini onlayn monitoringi tashkil qilindi;
- “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tizimlari bilan integratsiya natijasida kimyo mahsulotlari harakatini va vagonlar joylashuvini monitoring qilish imkoniyati shakllantirilmogda.

Shuningdek, “Farg‘onaazot” AJning 46 ta, “Navoiyazot” AJning 31 ta, “Maksam-Chirchiq” AJning 2 ta, “Ammofos-Maksam” AJning 2 ta, “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 2 ta, “Qizilqum fosforit kompleksi” MCHJning 3 ta, “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MCHJ QKning 2 ta ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari (ASUTP) ma‘lumotlari Analitik markaz ekranlariga chiqarildi. Barcha ishlab chiqarish sexlarining video kameralari tasvirlarini onlayn tarzda kuzatish imkoniyati yaratildi.

Vakolatli omborxonalarining faoliyatini raqamlashtirish maqsadida “Mening omborim” platformasi va mobil uskunalar uchun dasturlari ishlab chiqarildi. Ushbu tizimda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni omborxonalariga yuborilishi, birja savdolari orqali yutib olingan lotlar, real rejimda mahsulot kirimi va chiqimi ma‘lumotlarini va zaruriy mahsulotlar miqdorini rejalashtirish imkoniyati shakllantirildi. Omborxona vakillariga hisob varaƒalarini avtomatik shakllantirish qulayligi yaratildi. Hozirda mazkur tizim orqali vakolatli omborxonalar tomonidan kuniga 2000 taga yaqin kirim va chiqim amaliyotlari amalga oshirilmoqda.

Korxonalarining tayyor mahsulotlari saqlanayotgan barcha vakolatli omborxonalarining kuzatuv kameralari “Analitik markaz”ga ulanildi.

“Analitik markaz” tizimidagi ma‘lumotlar asosida sun‘iy intellekt modellari shakllantirildi, sun‘iy intellekt bilan muloqot uchun chat-bot yaratildi va model training bo‘yicha ishlar yakunlanib, tizim to‘liq ishga tushirildi.

“Analitik markaz” tizimida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni vakolatli omborxonalariga yetkazilishi, ulardan birja savdolariga qo‘yilgan mineral o‘g‘itlar savdosi, xaridorlarga o‘z vaqtida olib ketilishi bo‘yicha xabarnomalar yuborish hamda omborlardagi tovar qoldiqlarini o‘zgarishi bo‘yicha avtomatik ogohlantirish tizimi joriy qilindi.

Tarmoq korxonalarining moliyaviy holatini va prognozlashtirish imkonini beruvchi “Moliyaviy model” moduli ishga tushirildi.







source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/digital>